



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI URGUT FILIALI**

**“TA‘LIMDA INNOVATSION G‘OYALARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA  
ILM -FAN YUTUQLARINI JORIY ETISH TENDENSIYALARI ”**  
mavzusidagi Xalqaro -ilmiy va amaliy konferensiya

**AXBOROT XATI**

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risidagi”gi 16-sonli buyrug‘i 2-ilovasiga asosan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filialida **“Ta‘limda innovatsion g‘oyalarni rivojlantirish asosida ilm-fan yutuqlarini joriy etish tendensiyalari”** mavzusida **2024-yil 10-11 oktyabr kunlari** Xalqaro ilmiy va amaliy anjuman o‘tkaziladi.

**Anjuman dasturi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:**

- I. Zamonaviy lingvistikada xorijiy tajriba, istiqbolli izlanishlar va tillarni o‘qitishning innovatsion usullari.
- II. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tarmoqlar va sohalar kesimida iqtisodiy samaradorlikni oshirish muammolari.
- III. Maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta, professional va oliy ta‘lim tizimida innovatsion tajribalar asosida zamonaviy yondashuvlar.
- IV. Sun‘iy intellektni sohalarda qo‘llanilishi.
- V. Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda muammo va yechimlar.

**Anjuman tillari:**

§ O‘zbek, rus, ingliz tillari.

**Anjumanda ishtirok etish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:**

- Ma‘ruza bilan chiqish, ko‘rgazmali ma‘ruza, ma‘ruzalarni muhokamasida ishtirok, bahslar, master klasslar;
- Ilmiy maqola nashri.

**Anjumanda ishtirok etish tartibi:**

Ilmiy-amaliy anjuman to‘plamida maqolalar **2024-yilning 30-sentabr kuniga** qadar qabul qilinadi:

- Ilmiy maqolaning elektron shakli.
- Har bir material alohida faylda rasmiylashtirilib, quyidagi elektron manzilga yuborilishi lozim:

Telegram raqam: **+998994452870. Azzamov Zulfiqor**

Elektron pochta: **samduufkonferensiya@gmail.com**

[www.samduuf.uz](http://www.samduuf.uz)



## Ilmiy maqolani rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar:

### *Materiallarni rasmiylashtirish talablari:*

1. Maqolaning hajmi - 5 betgacha.
2. Matn formati: MS Word – 2003/2007, A4 (210x297 mm) formatda. Ikkala tomondan 2,5 sm dan qoldiriladi. Matn faqat Times New Roman garniturasida, 14 kegl, 1,0 interval bilan teriladi.
3. Maqola matni quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi:
  - birinchi qatorda, bosh harflar bilan maqolaning nomi (14 kegl);
  - ikkinchi qatorda, muallif (hammualliflar)ning familiyasi, ismi, sharifi (12 kegl);
  - uchinchi qatorda, muallif (hammualliflar)ning ish joyi, telefon raqami hamda elektron pochta (12 kegl);
  - maqolaning qisqacha annotatsiyasi (11 kegl, kursiv; o'zbek, rus va ingliz tillarida, 50 ta so'zdan ortmasligi lozim) kenglik bo'yicha tekislanadi;
  - kalit so'zlar (11 kegl, kursiv, 6 tagacha; o'zbek, rus va ingliz tillarida) kenglik bo'yicha tekislanadi;
  - rasm va jadval nomlanishi va arab raqamlari bilan raqamlanishi (1-rasm, 1-jadval va x.k.) shart, maqola matnida ularga havola etish lozim; jadvallar ichidagi yozuvlar 11 kegl dan kichik bo'lmasligi kerak;
  - foydalanilgan bibliografik manbalar "Foydalanilgan adabiyotlar" sarlavhasi ostida raqamlangan ro'yxat tarzida maqolaning oxirida keltiriladi (11 kegl); raqamlanish – alifbo tarzida; matn ichida bibliografik havolalar faqat kvadrat qavslar ko'rinishida ([1]) bo'lishi lozim.

### **Yuqorida ta'kidlangan talablarga rioya qilib yozilmagan ilmiy ishlar anjuman to'plamiga kiritilmaydi.**

Tashkiliy qo'mita anjuman to'plamida nashr etish uchun ilmiy ishlarni tanlash hamda anjuman mavzusiga qo'yilgan talablarga muvofiq bo'lmagan materiallarni rad etish huquqiga ega. Maqolalar mualliflik tahririda nashr etiladi. Yuborilgan materiallar mazmuni hamda haqqoniyligi uchun mualliflarning o'zi javobgardirlar.

### **Anjumanda ishtirok etish uchun to'lov shartlari:**

Anjumanning tashkiliy badali va materiallar to'plamining nashr xarajatlari bir maqola uchun 100 000 so'm deb belgilangan.

To'lovni amalga oshirish uchun bank karta raqami Ashrapov Abbosjon 9860 1201 5228 4523

### **Anjuman ishlari:**

- Anjuman materiallari to'plam sifatida nashr etiladi.
- Anjuman materiallari [Google Scholar](#) da indekslanadi.

### **Anjumanni o'tkazish joyi va vaqti:**

Anjuman tashkiliy qo'mitasining manzili: [Samarqand viloyati, Urgut shahri, Vag'ashti MFY 13-uy.](#)

+99899 445 28 70  
+99893 336 11 47

**Tashkiliy qo'mita**

[www.samduuf.uz](http://www.samduuf.uz)